

HAZRATI ZAYNULOBIDIN ZIYORATGOHI

Ozodbek Ne'matov

O'zMU Tarix fakulteti magistri

Annotatsiya: O'рта Osiyoning markazida joylashgan jannatmakon O'zbekiston hududida moziyga bo'ylashgan o'ziga xos tarixga ega bo'lgan ziyoratgoh va qadamjolar mavjud. Shunday ziyoartgohlardan biri Jizzax viloyati Forish tumanidagi Mojurum qishlog'idagi Hazrati Zaynulobidin ziyoratgohidir. Bunday qadimiy tarixga ega bo'lgan ziyoratgohlarni o'rganish ularning tarixini bilish bizning ota-bobolarimiz qanaday buyuk avliyo mo'tabar zot bo'lganligini anglashga katta yordam beradi.

Kalit so'zlar: Hazrati Zaynulobidin, Mojurum qishlog'i, Kulfisar ota, hazrat Abduqodir Jiloniy, muqaddas ziyoratgoh.

Yurtimizning boshqa hududlari singari Jizzax viloyati ham o'zining qadimiy tarixi, ajoyib asori-atiqalari, muqaddas qadamjo va ziyoratgohlari bilan o'zining munosib o'rniga ega. Hududdagi ana shunday muqaddas qadamjolardan biri Hazrati Zaynulobiddin ziyoratgohidir. Ushbu ziyoratgoh Jizzax viloyati Forish tumanining eng chekka, Navoiy viloyati Nurota tumani bilan chegaradosh bo'lgan Mojurum qishlog'ida joylashgan.

Hazrati Zaynulobidin to'g'risida bir qancha rivoyatlar mavjud. Ana shunday rivoyatlardan birida qayd etilishicha "hazrati Zaynulobidin islom dinini targ'ib qilib yurganida ko'z o'nggida otasini dushmanlari o'ldiradi. U kishining tanalari Mojurumda boshlari esa Chustda" ekan.

Zaynulobidin karomatlari haqidagi boshqa bir rivoyatda "bu avliyo sifat kishini tanalari faqat namoz o'qiyotgan vaqtlari bo'shashadi, boshqa vaqtlarda belbog'larini yechmasa, u kishiga o'q yoki qilich zarbi ham ta'sir qilmagan." deyiladi.¹

Zaynulobidin haqida bizgacha ko'p ma'lumotlar yetib kelmagan. Biroq ziyoratgoh haqida shu qishloqda istiqomat qiluvchi Rustamjon Rahmatullozodaning "Ajdodlar merosiga ehtrom" deb nomlangan risolasida bir qancha aniq ma'lumotlar berilgan.

¹ Рустамжон Раҳматуллозода. Аждодлар меросига эҳтиром.-Т.:2006. Б-47.

Toshkent davlat Sharqshunoslik institutining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'yozmalari markazi fondida saqlanayotgan "Xizonat ul-asfiyo"da keltirilishicha, musulmon olamida ikki zot Zaynulobidin degan laqab olgan. Ushbu laqabni birinchi olgan kishi Imom Ali bo'lib, hijriy 36 yoki 38-yilda Madinada tug'ilganlar. Onalari bibi Shahribonu eron podshosi Yazdigardning qizi bo'lganlar. Nomi zikr etilgan kitobda keltirilishicha, Imom Ali ibn Husayn kechasi tahajjud namozini o'qiyotganlarida shaytoni layn ajdaho suratiga kirib, ul kishini namozdan to'xtatish uchun keladi. Ul zot unga e'tibor ham qilmaydilar. Olloh taolo u mo'tabar zotga uning shayton ekanligini ma'lum qiladi. Shunda ul zot "la havla"ni o'qib bir tarsaki uradilar, u shayton tutunga aylanib g'oyib bo'ladi. Shu onda g'oyibdan "yo Zaynulobidin" degan ovoz keladi, shundan so'ng u kishiga Zaynulobiddin laqab bo'lib qoladi (Hizonat ul-asfiyo, 31-bet).

Ikkinchi Zaynulobidin degan laqabni olgan mo'tabar zot hazrat Hasan ibn Ali ibn Abu Tolibning 24-avlodlari, ya'ni hazrat Alining 25-avlodlari, ismlari-Alouddin, laqablari – Zaynulobidin. Hazrati Zaynulobidin ayni yigitlik davrlarida Nogur yo'lida otasining ko'z o'ngida yo'lto'sarlar qo'lida halok bo'ladi. Taxminan hijriy 895-yilda tug'ilib, 915-yillarda shahid bo'lganlar. "Hizonat ul-asfiyoda" keltirilishicha, Sayyid Alouddin, Sayyid G'avsul A'zam Abdulqodir Jiloniyning 12-avlodlari hisoblanadi.

Hazrat Abdulqodir Jiloniy hazrat Hasan ibn Ali ibn Abu Tolibning 12-avlodlaridir. Hazrat Abdulqodir Jiloniy hijriy 470-yili (milodiy 1079) tug'ilganlar va to'qson yil, yetti oy, 9 kun umrguzaronlik qilgan. Bu ulug' zotning 42 nafar farzandi bo'lib, to'qqiz farzandi ulug' maqomlarga, zohiriy va botiniy ilmlarga ega bo'lgan. To'rtinchi o'g'illari shayx Tojiddin Abdurazzoq bo'lib, ul kishining beshta farzandi bo'lgan. Bular: 1. Shayx Abu Solih, 2. Shayx Abulqosim, 3. Shayx Abdurahim, 4. Shayx Abulmahosin, 5. Sayyid Jamolulloh.²

Shayx Sayyid Jamolulloh buvalari Abdulqodir Jiloniyga juda ham o'xshashligidan hazrat G'avsul A'zam mazkur nevaralarini juda yaxshi ko'rganlar. Shu boisdan Shayx Sayyid Jamolulloh buvalari duolarining ijobatidan uzoq umr ko'rganlar. Ushbu buyuk zot umrning ko'p qismini Samarqandda o'tkazganlar. Samarqand viloyati

² Эралиев Б. Ўзбекистон зиёратгоҳлари ва кадамжолари. 4- қисм. Тошкент - "Турон замин зиё", 2017.Б-109

Urgut tumanida G'avs (G'us) deb ataluvchi qishloq va ziyoratgoh bor. Modomiki, Sayyid Abdulqodir Jiloniy hazratlarining nabiralari Samarqandda yashaganliklari haqida aniq ma'lumot bor ekan, demak, bundan ul zotning avlodlari Urgutga kelib, istiqomat qilganlari, haqiqattan uzoq emasligi kelib chiqadi. Endi Mojurumdagi hazrati Zaynulobiddinga kelsak, u zotning bobolari Samarqand va undan keyingilari Urgurtda istiqomat qilgan bo'lsalar, bu zotning ham Mojurumga kelgan bo'lishlari mumkinligi ayon bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan dalillardan ziyoratgoh Hasan ibn Ali ibn Abu Tolibning yigirma to'rtinchi, Hazrat Alining 25-avlodlari bo'lgan ismlari Alouddin, laqablari – Zaynulobidin nomi bilan bog'liq degan xulosaga kelish mumkin. Aynan bunday fikrga kelishimizga ham bir qancha sabablar mavjud:

Birinchidan, ziyoratgohga nomi berilgan zot Zaynulobidin ekanligi va u zot otasining ko'z oldida yo'lto'sarlar qo'lida shahid bo'lganligi to'g'risidagi rivoyat Mojurum qishlog'ida istiqomat qilayotgan kishilarning ota-bobolaridan avlodlarga og'izdan-og'izga bir necha yuzlab yillardan buyon o'tib kelganligi, bu rivoyatdagi karomatpesha kishining ismi va voqealar "Hizonat ul-asfiyo" kitobida keltirilganligi;

Ikkinchidan, "hizonat ul-asfiyo" kitobining 124-betida u zot shahid bo'lib, tanalari Mojurumda qolganligi;

Uchinchidan, qadimgi karvon yo'lining Nurota-Forish-Jizzax yo'nalishi shimolida joylashgan "Kulfisar ota" ziyoratgohi to'g'risidagi rivoyatda ham aynan "qadim zamonlarda butga ya'ni olovga sig'inadiganlarning podshosi g'araz maqsadda askarlariga avliyoning boshini olib kelishni buyuradi." Askarlar avliyoning boshini tanasidan judo qilib qaytayotganlarida hozirgi "kulfisar ota" ziyoratgohining o'rniga kelganda kech bo'lib qoladi va shu yerda tunab qolishadi.

Bu yerda bir uy bo'lib, bir kampir o'g'illari bilan yashar ekan. Keksa kampir Allohning borligiga iymon keltirgan inson ekan. Sahar payti ibodat qilish uchun tahoratga chiqsa, uxlab yotgan askarlar o'rtasida nayza uchiga qadab qo'yilgan boshga osmondan nur tushib turganligini va boshni kalmia qaytarib turganligini ko'rib qolibdi. Kampir tezda o'g'illarini uyg'otib, "Bu askarlar yomon niyatli insonlar ekan, bir karomatli avliyo insonning boshini olib ketayotganga o'xshaydi lekin biz uni olib qolishimiz kerak" deb aytadi. Shunda Allohning roziligi bilan kampirning bir o'g'li shahid bo'lib boshini berishga rozi bo'ladi. Kampir o'g'lining boshini olib borib, avliyoning boshini olib kelib sandiqqa solib qo'yadi. Askarlar ketganidan so'ng kampir avliyoning boshini

o'g'lining tanasiga yaqinlashtirganda bosh tana bilan o'zaro birikadi va shuyerga dafn etilgan.

To'rtinchidan ushbu hududda qadimdan islom olamiga mashhur bo'lgan Mojarmiy nisbasini olgan o'nlab allomalarning yetishib chiqqanligi ham Mojurumda azaldan diniy va dunyoviy bilimlar rivojlanib, bu yerga ko'plab tariqat namoyondalari hamda aziz va mo'tabar insonlarning qadami yetganligi ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Hozirda Mojurum qishlog'ida Hazrati Zaynulobidinga atab ziyoratgoh tashkil qilingan. Ushbu mo'tabar maskanni ziyorat qilish uchun respublikamizning turli hududlardan ziyoratchilar tashrif buyurishadi. Ushbu ziyoratgohga o'xshagan o'ziga xos tarixga ega bo'lgan ziyoratgohlar talaygina, faqat biz ularni o'rganishimiz va ularni asrab avaylashimiz kerak. Zero bunday muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar bizga moziydan qolgan ulkan meros hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Рустамжон Раҳматуллозода. Аждодлар меросига эҳтиром.-Т.:2006. Б-47.
2. Эралиев Б.Ўзбекистон зиёратгоҳлари ва кадамжолари. 4- қисм. Тошкент - "Турон замин зиё", 2017.Б-109
3. Ога Бургутли. Жиззах вилояти зиёратгоҳлари. Фан. -Т.: 2008. Б.36-37.